

TILSHUNOSLIK SOHALARI: FONETIKA VA FONOLOGIYA

*Andijon davlat chet tillari instituti**Hamdullayeva Mahliyo**Ilmiy rahbar: O'quv ishlari bo'yicha
prorektor**Kurbanov Elbek Elmurodovich*

Annotatsiya: Nutq barcha aqliy faoliyatning asosi, muloqot vositasidir.

O'quvchilarning qiyoslash, tasniflash, tizimlashtirish, umumlashtirish malakalari nutq orqali bilimlarni o'zlashtirish jarayonida shakllanadi va nutq faoliyatida ham namoyon boladi. O'quvchining mantiqiy aniq, dalillarga asoslangan, obrazli og'zaki va yozma nutqi uning aqliy rivojlanishining ko'rsatkichidir. Ushbu maqolada maktab darsliklarida fonetika o'qitish muammolari xususida qisqacha so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Til sathlari, fonetika, umumiylar xususiy fonetika, qiyosiy va eksperimental fonetika, jumla (fraz), takt, bo'g'in, enklitika, proklitika, diftong, ochiq bo'g'in, yopiq bo'g'in, berkitilgan yopiq bo'g'in, tovush.

Области лингвистики: фонетика и фонология**Хамдуллаева Махлиё Икром кизи**

Аннотация: Речь является основой всей умственной деятельности, средством общения. Умения учащихся сравнивать, классифицировать, систематизировать, обобщать формируются в процессе усвоения знаний посредством речи и проявляются в речевой деятельности. Логически четкая, аргументированная, образная устная и письменная речь учащегося является показателем его умственного развития. В этой статье кратко рассказывается о проблемах обучения фонетике в школьных учебниках.

Ключевые слова: Языковые уровни, фонетика, общая и частная фонетика, сравнительная и экспериментальная фонетика, предложение (фраза), тект, слог, энклитика, проклитика, дифтонг, открытый слог, закрытый слог, закрытый слог, звук.

Fields of linguistics: phonetics and phonology

Hamdullaeva Mahliyo Ikrom kizi

Annotation: Speech is the foundation of all mental activity and a means of communication. Students' skills in comparison, classification, systematization, and generalization are formed through the process of acquiring knowledge via speech and are also manifested in speech activities. A student's logically clear, evidence-based, and figurative oral and written speech is an indicator of their intellectual development. This article briefly discusses the challenges of teaching phonetics in school textbooks.

Key words: Language levels, phonetics, general and specific phonetics, comparative and experimental phonetics, sentence (phrase), tact, syllable, enclitic, proclitic, diphthong, open syllable, closed syllable, fully closed syllable, sound.

Har qanday nazariyada tabiat, jamiyat va inson tafakkurining obektiv qonuniyatlari aks etadi. Nazariya amaliyot asosida paydo bo'ladi, lekin u amaliy tajribalarni shunchaki umumlashtirib qolmaydi, balki ancha ilgari ketib, predmetning yangi tomonlarini, aloqa-munosabatlarini ochadi, shu bilan amaliyotga yordam beradi. Tor ma'noda na-zariya muayyan shaklga ega bo'lgan bilim demakdir. Inson ob'ektiv borliqning asosiy tomonlarini, ko'rinishlarini bilish va anglash jarayonida o'z bilimini boyitib, chuqurlashtirib boradi. Bilishning chuqurlashishi jarayonida to'plangan faktlar va xususiyatlar inson tomonidan bir-biriga bog'lanadi, mantiqan izchil bir sistemaga solinadi. Bunday sistemalar bilimning biror sohasiga (biologiya, geologiya, fizika, tilshunoslik va xokozolarga), jamiyatga yoki umuman borliqqa tegishli bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra, ular konkret fanlar sohasidagi nazariyalarga, ijtimoiy fanlar sohasidagi nazariyalarga, tabiatga oid nazariyalarga va shu kabi boshqa nazariyalarga ajratiladi. Har bir nazariya jamiyat hayotining konkret davrida mavjud bo'lgan bilimlar, faktlar va xususiyatlarni umumlashtirish, sistemalashtirish doirasi bilan cheklangan bo'ladi. Insoniyatning bilim doirasi kengaygan va chuqurlashgan sari eski nazariyalar yangi kashf etilgan qonuniyatlar, yangi topilgan fakt va xususiyatlarni tushuntirib bera olmaydi va yangi nazariyalarga o'rinn bo'shatib beradi. Demak, nazariyalar qotib qolgan, o'zgarmas sistemalar emas, ular tadrijiy ravishda o'zgartirilib, boyitib boriladi.

Masalan, tilshunoslik tarixida harf bilan uning tovush referentini bir hodisadek tasavvur qilish keng tarqalgan edi. Buni taniqli tilshunos Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ham kuzatish mumkin. "Devon" dan keltirilgan quyidagi misralar fikrimizning dalili: "Turkiy tillarda qo'llanadigan asosiy harflar soni 18 ta. Turkiy yozuvda shular qo'llaniladi... Harf bilan tovushning qorishtirilishi Yevropada Yunon - Rim tilshunoslari asarlarida ham kuzatiladi. Masalan, IV asrda yashagan Prissiananing grammatikasida harfga oid terminlar tovushga nisbatan qo'llanadi. Bunday qorishtirilish XIX asrgacha davom etadi. Taniqli olim, qiyosiy - tarixiy tilshunoslikning asoschilaridan biri bo'lgan Yakob Grimmning 1819 yilda yozilgan "Nemis grammatikasi" ("Deutsche Grammatik", I. G?ttingen, 1819) kitobining birinchi qismi "Von den Buchstaben" ("Harflar xususida") deb nomlanganligi ham shundan guvohlik beradi. Yosh grammatikachilar (mladogrammatika-chilar) tillarning qadimgi tovush tizimlarini qayta tiklash va bu tizimlarning keyingi taraqqiyot qonunlarini aniqlash ishlarida qadimgi yozma yodgorliklarning harflariga tayanib ish ko'rgan. Bu ham yuqoridagi fikrimizning isbotidir. Akademik L.V. Shcherba bunday holatning maktab darsliklarida ham kuzatilayotganligini tanqid qilib, 1904 yilda shunday degan edi: "Tovush va harflarning qorishtirilishi muallimlarni morfologiyada ham noto'g'ri xulosalarga olib keladi. Prof. L.R. Zinder L.V. Shcherbaning bu tanqidiy fikrini maktab darsliklarigagina emas, ayrim ilmiy grammatikalarga ham tatbiq etsa bo'ladi deb hisoblaydi: uningcha "-a" va "-ya" ning ikkita har xil qo'shimcha ekanligi faqat yozuvdagi holatdir, tilda esa ular, aslida, bitta qo'shimchaning o'zi. Ko'rinishda turibdiki, o'tmishda harf va tovush sistemalari ko'pincha farqlanmagan. Biroq XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, tilshunos-likda og'zaki va yozma nutqning har biri tilning alohida yashash formalari ekanligi ta'kidlana boshlanadi. Xusan, taniqli rus va polyak tilshunosi I.A. Boduen de Kurtene o'zining "Rus yozuvining rus tiliga munosabati" ("Ob otnoshenii russkogo pis'ma k russkomu yazo`-ku") kitobida nutqiy faoliyatning ikki turi - talaffuzga va eshituvga hamda yozish va ko'rishga asoslangan turlari borligini aytadi, ammo bu ikki formani u bir-biriga teng deb hisoblamaydi. Uningcha, nutqning talaffuzga va eshitishga asoslangan shakli yozma shaklga bog'liq

bo'limgan holda, mustaqil ravishda yuzaga kelishi mumkin, yozishga va ko'rishga asoslangan nutq shakli esa faqat talaffuzga va eshitishga asoslangan nutqqa bog'liq ravishda anglashiladi.

Tilning fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi va lug'at tarkibini ilmiy asosda har tomonlama o'rganish natijasida tilshunoslikning bir qancha sohalari yaratildi, chunonchi, fonetika morfologiya, sintaksis, leksikologiya, semasiologiya, etimalogiya va stilistika kabilar. Fonetika – tilning tovush tizimini, leksikologiya – lug'at tarkibini, morfologiya - so'z shakllarini, sintaksis – so'z shakllarining gapdagi vazifalarini, morfemika - so'z tarkibini, stilistika – nutq uslubini, semasiologiya - so'z ma'nolarini, etimologiya – so'zlarning kelib chiqishini o'rganadi. Tilning fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi va lug'at tarkibining har biri alohida – alohida tizimni tashkil qiladi. Ammo til sohalari (fonetika, leksika, grammatika) shu tilga xos qonun – qoidalar asosida bir – biri bilan o'zaro munosabatda bo'lib, bir tizimni hosil qiladi. Lisoniy sathlar sirasida fonetika eng kichik tashkil etuvchi bo'lib, boshqa sathlar (leksikologiya, grammatika...) birliklari uchun moddiy asos vazifasini o'taydi. Insonning nutq faoliyati nutq birliklari bo'lmish tovushlar tizimi vositasida ro'yobga chiqadi. Nutq tovushlari o'zida uch jihatni birlashtiradi: fiziologik, akustik (fizik), funksional. Nutq tovushlarining fiziologik jihatni deganda talaffuz a'zolarining boshqarilishi, fizik jihatni deganda tovushning akustikasi (eshitilish darajasi) tushunilsa, funksional jihatni nutq tovushlarining sotsial tomonini, aloqa vositasi ekanligini belgilaydi. Tilshunoslikda har uchala jihatni bir – biridan ajratmagan holda tadqiq qilish kerakligi masalasida olimlar turlicha qarashlarni ilgari surganlar. Pirovard natijada, tilshunoslikda ikki –fonetika va fonologiya sohalari ajralgan. Fonetika nutqiy xususiyliklarni, fonologiya lisoniy umumiyliliklarni tadqiq qilish bilan mashg'ul bo'ladigan bo'lib qoldi. Fonetika grekcha so'zdan olingan bo'lib, "tovushga xos" degan ma'noni bildiradi. Fonetika nutq tovushlarini hosil qiluvchi talaffuz apparatini ularning vazifasini ham tekshiradi. Tilning fonetika sathida boshqa fan sohalari – adabiyotshunoslik, fiziologiya, fizika, psixologiya kabi fanlar bilan aloqa yaqqol seziladi. Fonetika nutqdagi tovush o'zgarishlari va almashinishini, urg'u, bo'g'in va

ularning turlarini o‘rganadi. Fonetikaning amaliy ahamiyati orfografiya masalalarini hal qilishda, chet tillarni o‘rganishda, tili chuchuk bolalarning tilini tuzatishda, adabiy va dialektal talaffuz farqlarini aniqlashda namoyon bo‘ladi. Fonetika umumiy, xususiy va qiyosiy fonetikaga ajraladi. Umumiy fonetika barcha tillarga xos bo‘lgan talaffuz xususiyatlarini o‘rganadi. Unda intonatsiya uchun qo‘llaniladigan vositalar (tovush balandligi, kuchi, cho‘ziqligi, tezligi (tempi)), pauza, tembr kabi masalalar tekshiriladi. Xususiy fonetikada yoqorida aytilgan masalalar muayyan tillar misolida tekshiriladi. Xususiy fonetika tarixiy (dioxron) va zamonaviy (muosir) fonetika, tasviriy va eksperimental fonetika kabi ko‘rinishlarda ish yuritadi. Alovida apparatlar yordamida nutq tovushlari, bo‘g‘in, urg‘u va intonatsiyasidagi artikulyatsion-akustik xususiyatlar eksperimental fonetikada o‘rganiladi. Tarixiy fonetika esa tildagi fonetik xususiyatlarning rivojlanishini tekshiradi. Qiyosiy fonetika bir nechta qarindosh yoki qarindosh bo‘lmagan tillarning yoxud bir qancha dialekt va shevalarning unli va undosh tovushlari, ulardagi fonetik o‘zgarishlar va boshqa hodisalar qiyosiy aspektda tekshiriladi. Qiyosiy fonetika umumiy va xususiy fonetika oralig‘idagi vaziyatni egallaydi.

Nutqda tovushlar alovida – alovida talaffuz etilmaydi. Nutq quyidagi fonetik birliklardan iborat:

- fraza;
- takt;
- bo‘g‘in;
- tovush.

1. Jumla (fraza) – nutqning yirik mustaqil birligi bo‘lib, aloqa vositasi sanaladi. U o‘ziga xos intonatsion birlikdir. Har bir jumla chuqur to‘xtam bilan bo‘linib turadi.

2. Takt – jumlaning bir bo‘lagi bo‘lib, bir urg‘u yordamida bir yoki bir necha bo‘g‘inlarning ulanishidan tashkil topadi.

Ko‘p tillarda urg‘u mustaqil ma’noli so‘zlarning o‘zida bo‘lgani uchun ularning har qaysisi bir takt bo‘ladi. Yordamchi so‘zlar mustaqil ma’noli so‘zlar bilan birikib, bir taktni hosil qiladi Mustaqil ma’noli so‘zlardan oldin kelgan yordamchi so‘zlar

proklitika (prokliza), mustaqil so‘zlardan keyin kelgan yordamchi so‘zlar enklitika (enkliza) deyiladi. Turkiy tillarda enkliza hodisasi uchrasa, ovrupa tillari uchun esa ham prokliza, ham enkliza hodisasi xosdir.

Taktlar bo‘g‘inlarga ajraladi. Bo‘g‘in ham nutqning bir bo‘lagidir. Bo‘g‘in bir yoki bir necha tovushlar birikmasining bir havo zarbi bilan aytishidan hosil bo‘ladi. Har qanday tovush bo‘g‘in hosil qilavermaydi. Unli tovushlargina bo‘gin hosil qiladi. Masalan, mакtabимiz со‘зда то‘рт unli ishtirok etганлиги tufayli bu со‘з то‘рт bo‘g‘inga ajraladi: mak-ta-bi-miz yoki rus tilidagi книга, вода, парта со‘zlari tarkibidagi unlilarga qarab ikki bo‘g‘inga ajraladi. Ba’zi tillarda bir bo‘g‘in tarkibida ikki va undan ortiq unli ishtirok etishi mumkin. Bu hodisa tilshunoslikda diftong atamasi bilan qo‘llaniladi. Diftong yunoncha со‘з bo‘lib, "qo‘sh tovush" degan ma’noni bildiradi. Ayrim tillarda bu hodisani kuzataylik: Qирг‘из tilida-tooda-tog‘da Ingliz tilida-you-siz Fransuz tilida-moi-men

O‘zbek tilida bir unli bir bo‘g‘inni hosil qilganligi tufayli bu tilda monoftong (bir tovush) hodisasi xosdir . Bundan tashqari, ba’zi tillarda bir bo‘g‘inda uch unli tovushning birikib bo‘g‘in hosil qilish hodisasi ham uchraydi. Bu triftong (yunoncha со‘здан олинган bo‘lib “uch unli” degan ma’noni bildiradi) deb aytildi. Masalan, ingliz tilidagi eyes-ko‘zlar; tennis player–Tennischi, year-yil kabi. Bo‘g‘in tuzilishi jihatdan ham tillar birbiridan farq qiladi. Jahon tillarida eng ko‘p uchraydigan bo‘g‘in tipi “undosh + unli” bo‘lib, u qulay talaffuzi bilan ajralib turadi: qo-ra, to‘- ra; му-ка, py-ка kabi. Tillarda juda ko‘p uchraydigan bo‘g‘in chizmalari: cv, vc, vcv, cvc, ccv, vcc, cccv, cvcc va boshqalardir.

Shunday qilib, o‘zbek tilida cv, vc, cvc, c, cvcc, cccv kabi bo‘g‘in chizmalari ko‘proq uchrasa, rus tilida ccv, cvc cvcc, cccv kabi bo‘g‘in chizmalari, ingliz tilida esa o‘zbek va rus tillari uchun xos bo‘lmagan vcv, vcc kabi bo‘g‘in shakllari ko‘proq uchraydi. Bo‘g‘inlar ulardagi boshlang‘ich va oxirgi tovushlarga qarab tiplarga bo‘linadi: ochiq (unli bilan tugagan – to‘la, yopiq undosh bilan tugagan o‘t, osh) va berkitilgan – yopiq (bog‘, tosh. Bo‘g‘inni morfemadan farqlamoq kerak. Morfema – со‘зниг ма’ноли qismi. Bo‘g‘inga ajratilgan qism ma’no ifodalashi ham,

ifodalamasligi ham mimkin. Demak, so‘zni morfema va bo‘g‘inga ajratish har doim ham mos kelavermaydi. Masalan, mehnatkashlarimizni so‘zining bo‘g‘in va morfemaga ajratilishi quyidagicha: meh-nat-kash-la-ri-miz-ni—mehnat-kash-lar-imiz-ni. Bir bo‘g‘inli hisoblangan xitoy, tibet tillarida ko‘p hollarda bo‘g‘in va morfemaga ajratish mos tushadi. Nutqning eng kichik birligi bu tovushdir. Bo‘g‘inlar tovushlarga bo‘linadi. Masalan, inson so‘zi ikki bo‘g‘indan iborat bo‘lib, birinchi bo‘g‘ini ikki tovushdan (in), ikkinchi bo‘g‘ini uch tovushdan (son) tashkil topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arutyunova N.D. Discourse / Linguistic Encyclopedic Dictionary. M.:Soviet Encyclopedia, 1990. P. 136-137.
2. Brown, G. and G. Yule. Discourse Analysis. Cambridge: Cambridge University Press (Cambridge Textbooks in Linguistics), 1983.
3. Cook, G. Discourse. Oxford: Oxford University Press, 1989
4. Milovidov V.A. Tekst, kontekst, intertekst: Vvedenie v problematiku sravnitel'nogo literaturovedeniya. – Tver: TvGU, 1998, s. 39.
5. Xegay V. O ponyatii diskurs // Filologiya masalalari, 2006, N 2 (11), 63-66-betlar.
6. Xovanskaya Z.I. Analiz literaturnogo proizvedeniya v sovremennoy fransuzskoy filologii. –M.: Vissaya shkola, 1980.- S.143-144.
7. Исаева Е.Д. Понятие дискурса в современной лингвистике //<http://vii.srukras.ru/info/public/vii/book/ponyatie-diskursa-v-sovremennoy-lingvistike-2009>